



МАКТАБГАЧА ТА’ЛИМ TASHKILOTLARIDA INKLYUZIV ТА’ЛИМ JARAYONINI TASHKIL QILISHDA PEDAGOGIK HAMKORLIK

Ziyamova M.J.
KIUT magistranti

Tayanch so’zlar: maktabgacha ta’lim, pedagog-fasilitator, inklyuziv ta’lim, pedagogik hamkorlik, kouch hamkorlik, takomillashtirish.

Ключевые слова: дошкольное образование, педагог-фасилитатор, инклюзивное образование, педагогическое сотрудничество, коуч сотрудничество, улучшение.

Key words: pre-school education, educator-facilitator, an inclusive education, pedagogical cooperation, kouch partnership, improvement.

Bugungi kunda yurtimizda mustaqil taraqqiyotning rivojlanishi yo’lida ko’plab yangi islohotlar amalga oshirilmoqda. Bunda davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev Miromonovich tamonidan mamlakatimiz farovonligi uchun olib borayotgan say-harakatlari davlatimizni sanoatini rivojlantirish bilan birgalikda yurtimizni farovon va dunyo bilan integratsiyalashgan hududga aylanishiga xizmat qilmoqda. Shu bilan birga mamlakatimizdagi jamiyki sohalariga, xususan, davlatimiz iqtisodiyotiga, ijtimoiy sohalariga, sog’liqni saqlash sohasiga, savodhonlikga katta e’tibor qaratilmoqda. Yuqoridagi ta’kidlab o’tilgan sohalar qatorida maktabgacha ta’lim sohasi ham jadal rivojlanish bosqichidadir.

Barchamizga ma’lum-ki, O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahklamasining 2021-yilning 20-may kunda tasdiqlangan 320-sonli O’zbekiston Respublikasi Hukumatining ayrim sohalariga, shu jumladan “Maktabgacha ta’lim va tarbiya to’g’risida” gi qaroriga o’zgartirishlar va qo’shimcha kiritish to’g’risidagi qarori asosida bolalarni maktabgacha ta’lim bilan bosqichma-bosqich to’liq qamrab olish ishlari olib borilmoqda. Ta’lim to’g’risidagi qonunning yangi tahririga 2021-yilning 19-may kuni Oliy Majlis ilk bor inklyuziv, ya’ni uyg’unlashgan ta’lim tushunchasi kiritgan. Ushbu qonun 2020-yilning 13-oktabridagi «Alohida ta’limga ehtiyojlari bo’lgan bolalarga ta’lim-tarbiya berish tizimini yanada



takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PQ-4860-son qarorga muvofiq ishlab chiqilgan. O‘zbekiston nogironlar assotsiatsiyasi mutaxassislar bilan birga qonun loyihasining inklyuziv ta‘lim tamoyillariga muvofiqligi bo‘yicha qiyosiy tahlil ishlari o‘tkazilgan va ushbu qonunning 20-moddadasida har tamonlama nuqsonlari, xususan jismoniy, aqliy, sensor (sezgi) va ruhiy tamonlama nuqsonlari alohida ta‘limga ehtiyoji bo‘lgan bolalar uchun maktabgacha ta‘lim tashkilotlarida va maktablarda inklyuziv ta‘limni tashkil etish bo‘yicha qator chora-tadbirlar O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilab qo‘yilgan. Bu qonun albatta-ki alohida ta‘limga ehtiyoji bo‘lgan, ya‘ni salomatligida jismoniy, sezgi organlarida va yengil ruhiy, hamda aqliy nuqsoni bo‘lgan va “Nogironligi bor shaxs” sifatida e‘tirof etiluvchi bolalarning har tamonlama sog‘lom bolalar bilan teng huquqqa ega ekanligini himoya qiluvchi hujjat sifatida ham qo‘llaniladi desak mubolag‘a qilmaydi. Sababi, inklyuziv ta‘lim-bu alohida ta‘lim-tarbiyaviy ehtiyoji bo‘lgan bolalar bilan sog‘lom bolalar uchun birgalikdagi teng ta‘lim-tarbiya olish imkoniyatini yaratadi. 2020–2025 yillarga rejalashtirilgan xalq ta‘limi tizimida inklyuziv ta‘limni rivojlantirish konsepsiyasida alohida ta‘limga ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga ko‘rsatiladigan ta‘lim xizmatlari faoliyati sifatini yanada yaxshilash bo‘yicha quyidagi vazifalar belgilangan:

1. Alohida ta‘lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalar ta‘lim oladigan ta‘lim muassasalari binolariga qo‘yiladigan talablarni ishlab chiqish va tasdiqlash;

2. Alohida ta‘lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalar o‘qitiladigan ta‘lim muassasalarini zarur adabiyotlar, metodik qo‘llanmalar, turli kasblarga o‘qitish uchun uskuna va jihozlar bilan ta‘minlashga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish;

3. Alohida ta‘lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarni o‘qitish uchun inklyuziv ta‘lim tizimini tashkil etish, umumta‘lim muassasalarini maxsus moslamalar (ko‘tarish qurilmasi, pandus, tutqich va boshqalar), shuningdek tegishli kadrlar (maxsus pedagog, bolalarni ruhiy-pedagogik kuzatish bo‘yicha mutaxassislar) bilan ta‘minlash;

4. Alohida ta‘lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarning moslashishi va integratsiyasi uchun maktab-internatlarni bosqichma-bosqich maxsus jihozlar bilan ta‘minlash va boshqalar.

Bugungi kunda ko‘plab maktablarda va maktabgacha ta‘lim tashkilotlarida sinflar va guruhlar inklyuziv ta‘lim tizimiga o‘tkazilmoqda va bu dunyo miqyosidagi dolzarb mavzulardan biridir. Alohida ta‘limga ehtiyoji bo‘lgan bolalar sog‘lom bolalar orasiga qo‘shilmoqda va tengdoshlari bilan teng huquqqa ega ekanliklarini his qilmoqdalar. Lekin maktabgacha ta‘lim tashkilotlarida inklyuziv ta‘lim jarayonini tashkil qilishda yetarlicha shart-sharoitlar mavjud emasligi, ya‘ni tashkilot binosiga kirish qismida panduslar o‘rnatilmaganligi



harakat-tayanch a'zosida nuqsoni bo'lgan bolalarni aravachada harakatlanishiga noqulaylik tug'diradi. Bundan tashqari tadqiqotlar natijasida inklyuziv ta'lim jarayonini ota-onalar, hamda kerakli mutaxassislar, ya'ni bolaning nuqsonidan kelib chiqqan holda maxsus pedagog bilan hamkorlikda ish olib borish yo'lga qo'yilmaganligi va bolalarga ta'lim-tarbiya beruvchi tarbiyachi pedagoglar aynan alohida ehtiyoji bo'lgan bolalar bilan ishlash bo'yicha malaka oshirmaganlari va hech qanday bilim, ko'nikmaga ega emasliklari aniqlandi.

Inklyuziv ta'lim jarayonini tashkil etishda maktabgacha ta'lim tashkiloti hamda unda faoliyat olib boruvchi hodimlar, ya'ni tarbiyachi-fasilitator, metodist, tashkilot direktori, psixolog va kerakli maxsus pedagoglarni alohida ehtiyoji bor bo'lgan bolalarning ota-onalari bilan o'zaro hamkorliklarini eksperimental o'rgangan holda yo'lga qo'yish va inklyuziv ta'lim jarayoni faoliyatini samarali boshqarish faoliyatini tashkil qilish asosiy omillar hisoblanadi.

Agar maktabgacha ta'lim tashkilotlarida inklyuziv ta'lim jarayonini tashkil qilishda barcha jarayon ishtirokchilari insonparvarlik bilan yondashsa hamda maktabgacha ta'lim tashkilotlarida inklyuziv ta'lim jarayonini tashkil qilish uchun barcha kerakli shart-sharoitlar yaratilsa, ta'lim va tarbiya jarayonini olib boruvchi tarbiyachi-fasilitatorlar maxsus pedagogika bo'yicha malaka oshirsalar, tashkilot direktori va barcha hodimlar, xususan psixolog, metodist, maxsus pedagog (logoped, surdopedagog, tiflopedagog yoki difektolog) alohida ehtiyojga ega bolalarning ota-onalari bilan hamkorlik ishlarini yo'lga qo'ysalar, inklyuziv ta'lim jarayonidagi hamkorlikda pedagogik ishlar amalga oshirilishi samarali olib boriladi va alohida ehtiyojga ega bo'lgan bolalarning tengdoshlari qatori har tamonlama rivojlanishlaridagi ishlarning unumdorligi ortadi. Ushbu inklyuziv ta'lim jarayonini tashkil qilishda nafaqat ota-ona va maktabgacha ta'lim tashkiloti o'rtasida hamkorlik ishlarini olib borish mumkin, balki ikki turdagi, ya'ni davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari va ko'p tarmoqli ixtisoslashtirilgan davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari o'rtasida "Koch hamkorlik" o'rnatish inklyuziv ta'lim jarayonini olib borishda pedagog-fasilitatorlarning pedagogik kompetensiyasini takomillashishiga olib keladi. Sababi, ko'p tarmoqli ixtisoslashtirilgan davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarida faoliyat yuritayotgan pedagog-fasilitatorlarning alohida ehtiyoji bo'lgan bolalar bilan bevosita ta'lim-tarbiya ishlarini olib boradilar hamda alohida ehtiyojga ega bo'lgan bolalar bilan ishlashda mashg'ulotlar uchun kerakli bo'lgan maxsus texnologiya va metodlarni muntazam qo'llaganlari uchun yetarlicha bilim, malaka va ko'nikmalarga egalar. Shuning uchun ular boshqa maktabgacha ta'lim tashkilotlari uchun "Kouch", ya'ni trener vazifasini bajarishlari maqsadga muvofiq bo'ladi.



Agar yuqoridagi hamkorlik turlari, ya'ni ota-onalar bilan tashkilot o'rtasidagi pedagogik hamkorlik va ko'p tarmoqli ixtisoslashtirilagan davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari bilan davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari orasida kauch-hamkorlik aloqalari o'rnatilsa, o'ylayman-ki, biz ma'lum bir izchillikdagi rejaga ega bo'lamiz hamda inklyuziv ta'lim targ'ibot ishlarida ijobiy natijaga erishamiz va shu bilan birga maktabgacha ta'lim tashkilotlarining faoliyat samaradorligi biz kutgandan ham yuqoriroqqa ortadi.

Kouch hamkorlikda ko'p tarmoqli ixtisoslashtirilagan davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari hodimlariga qo'yiladigan umumiy talablar:

ko'p tarmoqli ixtisoslashtirilgan davlat maktabgacha ta'lim tashkiloti tamonidan masofaviy (onlayn) Kouch-trening darslari tashkil qilish va dars rejasini tuzish;

ushbu trening darsining mavzulari tanlanishi. Misol uchun:

Mavzu: Inklyuziv ta'lim jarayonini samarali tashkil qilish va uni boshqarish.

Mavzu: Alohida ehtiyoji bo'lgan bolalar bilan frontal va individual o'tkaziladigan mashg'ulotlarni turli metodlar yoirdamida olib borish.

Mavzu: Inklyuziv ta'lim jarayonida so'g'lom bolalar ota-onalari bilan tushuntirish ishlarini olib borish.

Mavzu: Inklyuziv ta'lim jarayonida ota-onalar bilan seminar-trening hamkorlik usullarini amalda qo'llash. Kabi mavzu;ar doirasida olib borish mumkin;

Yuqoridagi ko'rsatilgan mavzular asosida ko'p tarmoqli ixtisoslashtirilgan davlat maktabgacha ta'lim tashkiloti hodimlari tamonidan Kouch vazifasida maxsus taqdimotlar tayyorlanib o'z vaqtida darslarda taqdimot qilinishi;

Taqdimotlar davlat maktabgacha ta'lim tashkiloti hodimlari tamonidan o'rganilib, ularda mavzu asosida kelib chiqqan savollar trening darsi davomida "Keys study" va "Brainstorming" aqliy hujum metodlari yordamida keng ko'lamli muhokamalar olib borilib, savollarga javoblar topilishi zarur;

ushbu kouch hamkorlik doirasida ota-onalar bilan o'tkazilishi lozim bo'lgan targ'ibot chora-tadbirlari keng muhokama qilinishi, hamda ota-onalarni seminar darslarga jalb qilish, ularda insonparvarlik hislari asosida inklyuziv ta'limga to'g'ri yondashishlari uchun qilinishi kerak bo'lgan ishlar rejasi tuzib chiqilishi va amalda qo'llanilishini ta'minlash.

Xulosa qilib shuni ta'kidlash joiz-ki, bugungi kunda BMTning barqaror rivojlanish maqsadlari barcha yo'nalishlarda taraqqiyot mezonlari uchun asos sifatida xizmat qilib kelmoqda. Inklyuziv ta'lim sifatini yaxshilash va uni zamon talablariga moslashtirish mazkur maqsadlardan biridir. Har bir sohada imkoniyati cheklanganlar uchun qulay sharoitlar yaratish hamda mavjudlarini yangilash borasida O'zbekiston Milliy universitetida ham qator chora-tadbirlar



olib borilmoqda. Univeristetning 2022-2026-yillarga mo'ljallangan rivojlanish strategiyasida ham ushbu tarmoqni yanada takomillashtirish borasidagi rejalar belgilab qo'yilgan. Yaqinda bo'lib o'tgan Fransiya-O'zbekiston ikkinchi ta'lim forumi davomida O'zMU prorektori Sh.Toshmatov inklyuziv ta'lim bo'yicha Fransiyaning INSHEA (Institut national supérieur handicap et enseignements adaptés – Ta'limni nogironligi bor shaxslarga moslashtirilgan milliy instituti) vakillari bilan muzokaralar o'tkazib, hamkorlik o'rnatish masalasida kelishuvlar olib brogan. Ana shunday chet davlatlari miqyosidagi hamkorlik aloqalarini qo'llab-quvvatlash, o'zaro malaka oshirish ishlarini olib borish hech qanday shak-shubhasiz bugungi kundagi dolzarb masala deb atash mumkin. Chet davlatlari bilan hamkorlik aloqalari o'rnatilsa birinchi navbatda o'zimizning bilim darajamiz hamda malaka va ko'nikmalarimiz rivojlanishi darhaqiqatdir. Bundan tashqari, mamlakatimizda ichki hamkorlik aloqalarini o'rnatish ham katta natijalarga olib keladi. Bunda nafaqat ota-onalar bilan izchillikda haftalik (har haftada 1 marta), oylik (har oyda 1 marta) yoki kvartal-1 yilda 4 marotaba, ya'ni har 3oyda 1 marta pedagog-fasilitatorlar, tashkilot direktori, metodist, diffektolog va psixolog hamda tibbiyot hodimlari jalb etilgan holda seminar-treninglar o'tkazish, balki ta'lim tashkilotlari o'rtasida Kouch-hamkorligini o'rnatish ham maqsadga muvofiq bo'ladi. Inklyuziv ta'limda bunday hamkorlik turi hali hech bir tashkilotda o'rnatilmagan va tajriba sinovidan o'tkazilmagan.

Adabiyotlar:

1. “2017-2021-yillarda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chorata tadbirlari to'g'risida”gi qarori.
2. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Qo'mitasining 2020-yilning 13-oktabridagi «Alohida ta'limga ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-4860-son qarori.
3. F.Qodirova, Sh.Toshpo'latova, N.M.Kayumova, M.N.A'zamova “Maktabgacha pedagogika”.- T., “Tafakkur”. 2019
4. L.Mo'minova, M.Ayupova, D.Nurkeldieva, X.Kalbaeva, «Maxsus pedagogika» 2-nashr, T:-2016
5. <https://lex.uz/docs/-5013007>

РЕЗЮМЕ

Ushbu maqolada maktabgacha ta'lim tashkilotlarida inklyuziv ta'lim jarayonini tashkil qilishda pedagogik hamkorlikning asosiy omillari hamda pedagogik hamkorlikdagi muhim muammolar va ularning yechimi haqida fikr yuritilgan.

РЕЗЮМЕ

В данной статье рассматриваются основные факторы педагогического сотрудничества при организации инклюзивного образовательного процесса в дошкольных образовательных организациях, а также важные проблемы педагогического сотрудничества и пути их решения.

SUMMARY

This article discusses the main factors of pedagogical cooperation when organizing an inclusive educational organizations, as well as important problems of pedagogical cooperation and ways to solve them.